

## **BANKLARNING KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

*Maxkamboyev A.T.*

*Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

*Egamberdiyeva Hilolaoy Olimjon qizi*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti MBR-11 guruh magistri*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va rivojlanishning yangi bosqichida tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar samardorligini oshirishdan iborat. Bu ishda tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni yo'lga qo'yish, takomillashtirish hamda kredit portfeli tarkibidagi muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**АННОТАЦИЯ:** Целью этой статьи является повышение эффективности финансовых услуг, предоставляемых коммерческими банками на новом этапе экономических реформ и развития в нашей стране. В этой работе были разработаны предложения и рекомендации по созданию, улучшению и сокращению проблемных кредитов в кредитном портфеле коммерческих банков.

**ANNOTATION:** The goal of this article is to increase the effectiveness of financial services provided by commercial banks at the new stage of economic reforms and development in our country. In this work, proposals and recommendations were developed for the creation, improvement and reduction of problem loans in the credit portfolio of commercial banks.

**Kalit so'zlar:** Tijorat banklari, kredit portfeli, muammoli kredit, kredit portfeli sifati, samaradorlik.

## **KIRISH**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va rivojlanishning yangi bosqichida tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar beqiyosdir. Buning isboti sifatida shuni aytishimiz mumkinki, iqtisodiyotga banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlarning salmog'i yildan yilga o'sib bormoqda. Xususan, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi 2017-yilda 25,1 foizga oshib, 53,4 trln.so'mga yetdi. Mazkur kreditlarning 80 foizini investitsiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, tijorat banklarining kredit portfeli hajmi yanada oshmoqda. Tijorat banklari kredit portfeli o'sishi, albatta, ijobiy holat hisoblanadi. Ammo turli sohalarga banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning hammasi ham standart kreditlar emas hamda bu kreditlar tarkibida muammoli qismi ham mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu holatlarni oldini olish uchun tijorat banklari tomonidan kredit portfelini boshqarishni yanada takomillashtirish va albatta ushbu sohada xorij tajribasini o'rgangan holda, bizning bank tizimimizga qo'llash hamda yangi ishlab chiqilayotgan qonunchilik me'yoriy hujjatlari, ilmiy adabiyotlar va jahonda qo'llanilayotgan xalqaro talablarni qo'llashdan iboratdir.

## **ASOSIY QISM**

Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklarining samarali faoliyatining garovidir. Berilgan kreditlarning o'z vaqtida banklarga qaytarilishi kreditlash jarayonining qay darajada tashkil qilinishiga, kredit berish va qaytarilishining muddatlariga rioya qilinishiga, ssudalar, ayniqsa muddati o'tgan yoki uzaytirilgan kreditlar bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarining to'g'ri olib borilishiga, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash rezervi miqdoriga, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar

bo'yicha operatsiyalarning qonuniyligiga va kreditlarni to'g'ri turkumlash bo'yicha banklarda o'tkaziladigan analitik operatsiyalarning sifatligi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

### **Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari<sup>1</sup>**

1	Kreditlar holati tahlili	Joriy, muddati o'tgan kreditlar, undirilmagan kreditlar, sud jarayonidagi ssudalar, ro'yxatdan chiqarilgan kreditlar
2	Kreditlarning muddatlari bo'yicha tahlili	Qisqa muddatli kreditlar Uzoq muddatli kreditlar Overdraft krediti Kontokorrent krediti
3	Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil	Sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes, savdo, davlat transhi, mikro kreditlar, iste'mol krediti
4	Foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi Kayta moliyalashtirish stavkasi Tijoratli foiz stavkasi
5	Ta'minot turi bo'yicha tahlil	Ishonchli kreditlar, mol-mulk garovi ostida beriladigan kreditlar, uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlar va kafolatlangan kreditlar
6	Kreditlar sifati tahlili	Birinchi sinf(yaxshi), standart, substandart, shubxali va umidsiz
7	Kredit tarixi tahlili	Bank o'z mablag'lari hisobiga beriladigan kreditlar, qayta moliyalashtirish mablag'lari, filiallararo va transh mablag'lari xisobidan berilgan kreditlar
8	Kreditlarning maqsadlariga qarab tahlil qilish	Tijorat krediti Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar
9	Tahlil jarayonidagi kreditlar o'zgarishi dinamikasi	Kredit hajmining o'sishi(kamayishi), muammoli kreditlar hissasi va ular bilan ishlash samaradorligi, zahiralarning summasi, kredit aktivlarining rentabelligi

Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Turli ilmiy manbalarda "tijorat banklari kredit portfeli" tushunchasi bank tizimi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni

<sup>1</sup> Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash.- T.: Moliya, 2002. -304b.

anglatadigan asosiy tushunchalardan biriga aylanib qoldi. Uning tez orada ommalashib ketishiga sabab shundaki, “kredit portfeli” tijorat banklarining kredit bilan bog‘liq butun faoliyatida hal qiluvchi o‘rin tutadi. “Kredit portfeli” tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko‘rsatadigan omillardandir.

Kredit portfeli monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) kreditni monitoring qilish;
- b) kredit portfelini monitoring qilish.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko‘payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida undirib olishni ta‘minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda.

Bankning kredit portfelini boshqarishning asosiy tamoyillari:

- maqsadlilik – bank maqsad bilan bosqarishda etarli darajada likvidlilik va maqbul darajada kredit riskini ushlab turish bilan foizli daromad olish;
- komplekslilik – kredit portfelini daromadlilik va likvidlilik ta‘minash maqsadida bank bir vaqtning o‘zida kredit faoliyatini nazoratga oladi;
- bosqichma-bosqichlilik - hamma bank darajasida kredit portfelini sifatini boshqarish;
- to‘la tahlil – kredit oluvchining kreditni to‘lashga qodirligining iqtisodiy va noiqtisodiy tahlil ko‘rsatkichlari, kredit portfeli sifatini mezonlari bo‘yicha kredit riski darajasini aniqlash;
- oshkoralik- kredit portfeli sifatiga tez ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ko‘p sonlilik;
- uzluksizlik – portfelni sifatini boshqarishda bank va mijoz o‘rtasidagi kredit shartnomasini ishlash muddati;

- ketma-ketlilik – kredit portfelini boshqarishning har etaplarida tashkiliy va funksional bog‘liqligini saqlash;
- dinamik tahlil – omilli tahlil, ya’ni kredit portfelini oldingi davrda yoki kelajakdagi ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi;
- muhimlik – muhimi mijozlarga uzoq muddatli kreditlar berilyotganda kreditlardan foydalanish huquqi hamda mijozning pul oqimi dinamikasini o‘rganish;
- qobiliyatlilik – mijozga berilgan kreditlarni qoplashda likvidli aktivlarni garov sifatida qabul;
- balanslilik – bunda joylashtirilgan kreditlar bilan jalb qilingan resurslarni o‘zaro bir-biriga muvofiqligi;
- yo‘nalishlilik – iqtisodiy maqsadlarda va bank rivojlanish maqsadlarining bir-biriga mos kelishi;
- elastiklik – portfelning strukturasi va hajmi doimo o‘zgarib turishi<sup>2</sup>.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ahamiyati nihoyat yuqoriligini inobatga olgan holda, ushbu ajratilayotgan kreditlarning samaradorligini baholash va qaytishini ta'minlash tijorat banklari zimmasiga zarur vazifalarni yuklashga olib kelmoqda. Ma'lumki, hozirgi sharoitda tijorat banki tomonidan berilgan asosiy qarz summasi va hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytirishini kafolatlash uchun uzluksiz amaliyotni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunisi xarakterliki, kreditni sifat jihatidan butun kredit operatsiyasi vaqti mobaynida kamdan kam hollarda o'zgarmasdan qoladi. Mijozning moliyaviy imkoniyatlari iqtisodiyotning holati, garov bahosi xilma-xil omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi va tabiiyki, kreditning sifatiga ta'sir qiladi. Berilgan kreditlar ustidan amalga oshiriladigan nazorat jarayoni bizning fikrimizga quyidagi ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga olishi kerak:

---

<sup>2</sup> Гребеник Т. В Управление качеством кредитного портфеля коммерческого банка в период посткризисного развития: Иктисод фаналри номзоди ... Дис.//М.: 2014й 214б. 6

1. Operativ ma'lumotlar asosida va ta'sir qiluvchi omillar ustidan monitoringni kuchaytirish;

2. Kredit operatsiyalarini hamda kredit portfelini kredit siyosatidan kelib chiqqan holda to'liq va mukammal tahlil qilish ustidan monitoring kuchaytirish. Bank kredit risklarini boshqarish usullarini sxema shaklida aks ettiradigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

### Kredit portfeli sifatini yaxshilash uchun risklarni boshqarish sxemasi<sup>3</sup>

Kredit risklarini yuzaga kelishini oldini olish	Muammolarning yechimi
Risk ehtimollarini kamaytirish	
Qarzdorning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini baholash.	Bu metodda tijorat banki mijozlarining holati va kreditga layoqatliligini ularning moliyaviy hisobotlaridan kelib chiqqan holda baholash, ya'ni kredit layoqatliligi bo'yicha qaysi sinfga kirishini aniq formulalar yordamida hisoblash tushuniladi.
Bir qarzdorga va o'zaro daxldor shaxslarga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish.	Bu metod tijorat banki tomonidan mijozning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichi aniq hisoblab bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi.
Kreditlarni turli xil risklardan sug'urtalash.	Bunda bank ajratayotgan krediti qaytmaslik riskidan sug'urtalash nazarda tutilib, risklilik darajasini pasaytirish uchun ushbu metoddan foydalanadi.
Yetarli ta'minotni talab qilish.	Bunday usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoyalashda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan yetarli ta'minotni jalb qilishga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligini tahlil qilishga qaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa sifatida shuni aytish joizki, tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bular:

- kredit xatari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni xatar guruhlari bo'yicha tasniflash;

<sup>3</sup> Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash.- T.: Moliya, 2002. 65-78 b.

- kredit portfelini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qullashtirish;
- kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zaxiralarni yetarliligini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;
- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 1995-yil 21-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel`.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". – Toshkent: O'zbekiston,2017. – 104b.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". – Toshkent:"O'zbekiston",2017. – 48b.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: "O'zbekiston",2017. – 488b.
6. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash.- T.: Moliya, 2002. 304b.
7. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "IQTISODMOLIYA", 2008,-335b.
8. Abdullaeva SH. Z. Bank ishi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Moliya, 2010. -312b.
9. Azizov U.O'.va boshqalar.Bank ishi. Darslik.– "Fanvatexnologiya", 2016, 640b.
10. www.stat.uz -O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi
11. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
12. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki